

2022-yilda respublikada dehqonchilik uchun 61736 nafar yoshga yer ajratildi.

Jami ajratilgan yer: 61736 gektar

Shundan "Yoshlar daftari"ga kiritilganlar: 22173 nafari.

Ularga ajratilgan yer: 4486 gektar

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

15 (16468)
2022-yil, 26-mart
shanba

[/yoshlarovoziuz](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Nigoh
3-bet

Otalar yo'li

Mahallada yoshlar yetakchisi
5-bet

Yechimi
topildi

Bugunning gapi
7-bet

Yashil makonni yoshlar
bilan yaratamiz



Foto: Husniddin ATO

Oy qizga

TAXT

batafsil

6-7-betlar →

erakmi?

YOSHLARGA

MUROJAAT

Navro'z va yoshlik tushunchalari bir-biriga bag'oyat yaqin va mushtarakdir.

Bugun azm-u shijoatli millionlab farzandlarimizga g'urur bilan qarar ekanmiz, bu haqiqatga takroran ishonch hosil qilamiz.

Mana shu hayajonli daqiqalarda, ezgu orzu-intilishlar bilan hayotga kirib kelayotgan yosh avlodimizga – aziz bolalarimga murojaat qilib aytmoqchiman:

Qadri o'g'il-qizlarim, sizlar mustaqil, erkin va obod Vatan bag'rida voyaga yetmoqdasiz. Bu, hech shubhasiz, bebaho boylik va katta baxt, ayni vaqtda cheksiz mas'uliyatdir.

Nega deganda, ota-onalar, ustozlaringiz boshlagan ulkan ishlarni ertaga aynan sizlar davom ettirasiz.

Bu ulug' vazifaga hozirdan tayyor bo'lishingiz, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallashingiz, muqaddas Vatanimizni ko'z qarachig'idek asrashingiz, unga hamisha sodiq bo'lib yashashingiz zarur.

Doimo yodingizda bo'lsin – biz intilayotgan yuksak marralarga, hech qachon o'z-o'zidan, osonlik bilan erishib bo'lmaydi.



Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessansni xalqimizning buyuk qudratidan kuch olib, bugungi va ertangi avlodimiz bunyod etadi.

Sizlar bo'lg'usi Xorazmiy va Farg'oniyalar, Beruniy va Ibn Sinolar, Ulug'bek va Navoiylar, Boburlar sifatida Vatanimiz shonu-shuhratini butun dunyoga, albatta, tarannum etasizlar.

Ilm va hunar o'rganishdan, kamolot sari parvozdan aslo to'xtamang. Doimo oldinga, yuksak cho'qqilarga intiling, aziz farzandlarim!

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik nutqidan

YOSHLARGA SAFARBARLIK CHAQIRUVI REZERVIDAGI XIZMATNI O'TASH BADALI QOPLAB BERILADI



1

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash badalini to'liq qoplash uchun subsidiya kimlarga ajratiladi?

Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash uchun subsidiya "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ajratiladi



2

Subsidiya olmoqchi bo'lgan yoshlar kimga murojaat qiladi?

Yoshlar safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash badalini to'lash uchun subsidiya ajratish haqida doimiy yashash manzili yoki tarbiyalangan "mehribonlik" uyi, bolalar shaharchasi yoki oilaviy bolalar uyi joylashgan joydagi sektor shtabiga borib, Vasiylik kengashi raisi nomiga yozma shaklda yoki "Yoshlar daftari" elektron platformasi orqali onlayn murojaat qiladi.

3

Murojaatni ko'rib chiqish muddati qancha?

I bosqich:

Vasiylik kengashi ariza beruvchining safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tash badalini qoplash uchun tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi hisobraqamiga safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchisining familiya, ismi, otasining ismi va to'lov maqsadi ko'rsatilgan holda subsidiyani o'tkazib beradi.

"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hududiy bo'limlarida mablag'lar subsidiya ajratish uchun yetarli bo'lmaganda, markaziy jamg'armaga murojaat etiladi. Markaziy jamg'arma 3 kun ichida subsidiya mablag'larini o'tkazib beradi.

II bosqich:

Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi so'rov xati bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlar nusxalari belgilangan talablarga muvofiq bo'lsa, Yosh-

lar ishlari agentligi markaziy apparatiga ariza beruvchiga subsidiya ajratish to'g'risida talabnoma yuboradi. Murojaat so'rov xati kelib tushgandan so'ng uch ish kunida ko'rib chiqiladi.

III bosqich:

Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparatida Jamg'armaning daromad va xarajatlari hisob-kitobidan kelib chiqib, besh ish kunida subsidiyani to'lash bo'yicha to'lov grafigi shakllantiriladi.

Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmasiga shakllantirilgan to'lov grafigi, ariza beruvchiga ushbu to'lov grafigiga muvofiq subsidiyani to'lab berish muddati haqida SMS xabar yuboriladi.

Talabnoma asosida subsidiyani Jamg'arma mablag'lari hisobidan Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasining Jamg'arma mablag'lari bo'yicha tegishli g'azna hisob varag'iga to'lov grafigiga muvofiq o'tkazib beradi.

4

Badalini to'lab berish qay yo'sinda amalga oshiriladi?

Yoshlar ishlari agentligi hududiy boshqarmasi mablag'lar kelib tushgan sanadan boshlab uch tarafdama shartnomani (uch nusxada) imzolab, bittadan asl nusxasini tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga va ariza beruvchiga yuboradi hamda mablag'larni tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limiga va ariza beruvchiga yuboradi hamda mablag'larni tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi hisobraqamiga safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatchisining familiya, ismi, otasining ismi va to'lov maqsadi ko'rsatilgan holda o'tkazib beradi va bu haqda ariza beruvchiga 3 ish kunida SMS xabar yuboradi.



Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Otalar

Bahorning salqin, seryog'in kuni. Toshkentdagi Yoshlar ijod saroyi har doimgidan boshqacha qiyofada. Bugun bu dargohda o'tgan asrning 70-80-yillarida respublikamiz yoshlar tashkilotlarida turli rahbarlik lavozimlarida ishlab, el nazariga tushgan, hozir ham yangi O'zbekiston gullab-yashnashi uchun jon fido yurtboshimizga kamarbasta bo'lishga bel bog'lagan bir guruh mehnat faxriylari bugungi yoshlar yetakchilari bilan uchrashish uchun kelishgan. Bu nuroniylarning har biri - bir tarix, ibratli hayot kitobi, nasihatgo'y buvi va bobo...

Yoshlar yetakchilari uchun bu nuroniylarning yorqin hayot yo'li, ish tajribasi, chin isoniylik xislatlari, hamisha xalq e'zozida bo'lishdek fazilatlarini bilish juda qiziqarli. Shu sababdan yoshlar uchrashuv qatnashchilari - Maslahat kengashi ishtirokchilari bilan yaqindan tanisha boshlaydilar.

Mirahmad Mirqosimov - davlat va siyosat arbobi, ko'p yillar bir qator viloyatlarga rahbarlik qilgan. Bosh vazir vazifasini bajargan tajribali inson. Uning ibratli hayoti va faoliyati, xotiralari bugungi yoshlar yetakchilari uchun suv bilan havodek zarur. Shu sababli u kishi bilan muloqot juda qiziqarli va hech tugamaydiganday.

ning mashhur universitetlarida ma'ruzalar o'qib, tanilgan olim. Bir necha chet tillarni mukammal biladigan dunyoqarashi keng, xalqimizning eng faxrli insonlaridan. Yoshlar tashkilotlarida ishlab kamolga yetgan bu yetuk olimning ham yoshlar yetakchilariga aytadigan gaplari ko'p. Ikki avlod uchrashuvi hali uzoq davom etadi. Bunday ibratli, bag'rikeng, bilimdon inson bo'lish har bir yigit-qizning orzusi.

Nosir Yakubov - favqulodda va muxtor elchi, yoshlar tashkilotining tajribali rahbari, mehribon ustoz. Uning ham navqiron avlodga aytadigan gaplari, nasihatlari, takliflari bisyor.

“

OTALAR YO'LI, OTALAR SO'ZI.
BU IBRAT VA SABOQ MAKTABI,
KELAJAKKA XIZMAT QILADIGAN
MASLAHAT KENGASHI.

Yusuf Abdullayev - fan doktori, professor. Mustaqil O'zbekistonning ilk favqulodda va muxtor elchilaridan. Samarqandda oliy dargohda rektor bo'lib, ko'plab shogirdlar yetishtirgan ustoz. Xorij

Yuriy Sharanov - yoshlar tashkilotining mohir yetakchilaridan, respublikamizga taniqli rahbarlardan biri.

A'lo Xo'jayev - taniqli davlat va jamoat arbobi bo'libgina qolmay, iste'dodli shoir sifatida ham

ko'pchilikka tanish. Uning she'rlari bilan aytiladigan qo'shiqlar na faqat respublikamizda, balki chet ellarda ham mashhur. Bu ibratli inson bilan uchrashish, suhbatlashishni har bir yetakchi istaydi.

Gulnora Yo'chiyeva ham xotin-qizlar harakatining eng fidoyi yetakchilaridan biri, jonkuyar ustoz. U davlatimiz rahbarining da'vatiga javoban har bir mahallada mehnat faxriysi 10 ta yoshni otaliqqa olib, katta hayotda bosh-qosh bo'lishini baralla aytib, yetakchilarni faollikka chorladi...

Yangi O'zbekistonni bugungi avlod quradi. Bu yuksak g'oya har bir yoshning qalbidan muqim joy olishi kerak. Shu sababdan yoshlar tashkilotlarining mafkura sohasidagi ishlarini yanada jonlantirish, uning "Yoshlar ovozi", "Yosh kuch" singari nashrlari faoliyatini kuchaytirib, mushitariylarini ko'paytirish, bolalar tarbiyasi va ularning yagona tashkilotga birlashtirish borasidagi takliflari ham uchrashuvda baralla aytiladi.

Uchrashuvda so'z olib, o'zlarining ibratli fikr va takliflari

ni bayon etgan O'tkir Zokirov, To'laqin Qozoqboyev, Shavkat Miralimov va boshqalarning ham chiqishlari yoshlar yetakchilari uchun o'ziga hos saboq, tajriba maktabi vazifasini o'taydi.

Prezidentimizning yoshlarga va nuroniylarga ko'rsatayotgan alohida g'amxo'rliklariga javoban xalqimizning taniqli faxriylarini yig'ib, ana shunday uchrashuvni tashkil etgan el xizmatidagi rahbar ustoz Rixsi Alimovning mehnatlari beqiyos. Hozir ham qalbidan yoshlarga xos jo'shqinlik, mehr, tashkilotchilik xislatlari bir daqiqqa ham tark etmayotgan bu faxriyning rejalarini ko'p.

Faxriylar, rahbarlar va yoshlar yetakchilarining ilk mashvarati ana shunday fayzli, maroqli o'tdi. Bunday uchrashuvni o'tkazishda Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinbosari Dilnoza Kattaxonovanning ibratli tashkilotchiligi alohida o'ringa ega. Ularning ta'kidlashicha, bunday muloqotlar endi respublikamizning barcha viloyatlarida davom etadi.

Otalar yo'li, otalar so'zi. Bu ibrat va saboq maktabi, kelajakka xizmat qiladigan Maslahat kengashi. Bunday uchrashuvlar, dildan suhbatlar hali ko'plab xayrli ishlarga turtki bo'ladi.



Yong'ingarchilik rekordi

Toshkent shahrida yog'ingarchilik kuzatuvlari 1870-yildan olib boriladi. 1968-1969-yilning qishi O'zbekistonda juda sovuq va ko'p qorli bo'lgan. 1969-yil mart oyida yog'inlar ham favqulodda ko'p yog'gani sababli umumiy yog'in miqdori 184 mm.ga yetgan. Bu kuzatuvlar tarixidagi eng yuqori ko'rsatkich.

Odatda mart oyida o'rtacha yog'ingarchilik miqdori 70,2 mm.ga yetadi. Bu yil esa, 24-martgacha poytaxtda 168 mm yog'in kuzatilgan. Bu yillik yog'inning 37 foizi, mart oyidagi o'rtacha ko'rsatkichning 240 foiziga tengdir.

26-29-mart kunlari yana 16 mm.ga yaqin yog'in kuzatilishi taxmin qilinmoqda. Taxminlar to'g'ri chiqsa, bu yil tarixiy rekordga guvoh bo'lamiz.





“YOSHLAR OVOZI” RESPUBLIKA TANLOVI



TANLOVNING YO'NALISHLARI



Baxshichlik



An'anaviy ijro



Opera




Estrada

TANLOV 3 YOSH TOIFASIDA BO'LIB O'TADI

MAS'UL VAZIRLIK VA IDORALAR

- 10 YOSHDAN 15 YOSHGACHA
- 16 YOSHDAN 22 YOSHGACHA
- 23 YOSHDAN 30 YOSHGACHA



TANLOV BOSQICHLARI, O'TKAZILADIGAN MUDDATI VA JOYI

MAHALLA BOSQICHI	1-5-APREL	MAHALLADAGI Tanim muassasalari yoki madaniyat markazlarida
SEKTOR BOSQICHI	6-10-APREL	SEKTORDAGI Tanim muassasalari yoki madaniyat markazlarida
TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI	11-16-APREL	MADANIYAT markazida
HUDUDiy BOSQICHI	18-30-APREL	YOSHLAR markazida
RESPUBLIKA BOSQICHI	10-15-MAY	NUKUS VA BO'ZATOV tumanlarida

- TV Tanlovning hududiy va respublika bosqichlari televidion formatda o'tkaziladi
- 150 MING dan ortiq yoshlar qamrab olinishi kutilmoqda
(2021-yilda 10 ming nafar yoshlar qamrab olingan)
- Tanlovda ishtirokchilar **@YOSHLARMUROJAATI BOT** orqali ro'yxatdan o'tadi
- Harajatlari hududiy "YOSHLAR DAFTARI" jamg'armasidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi

1 MAHALLA BOSQICHI 1-5-APREL

- Mahallada joylashgan ko'chalar kesimida tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan yoshlarning atizlari 3 yosh toifasida (10-15 yosh, 16-22 yosh va 23-30 yosh) telegramdagi @yoshlarmurojaati_bot yoki mahalla yetakchisi orqali qabul qilinadi
- Tanlovni tashkil etishda mahalladagi yoshlar yetakchisiga maktab musiqa fani o'qituvchisi, madaniyat markazi, bolalar musiqa va san'at, "Barkamol avlod" maktablarining musiqa to'garagi rahbarlari ko'maklashadi
- Tanlov ishtirokchisi faqatgina bitta yo'nalish (baxshichlik, an'anaviy ijro (maqom, katta ashula, suvoraxonlik) opera, estrada) bo'yicha ishtirok etadi
- Tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan yoshlar, telegram bot orqali ro'yxatdan o'tadi. Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchi tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

2 SEKTOR BOSQICHI 6-10-APREL

- Mahalla bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar sektor bosqichida o'zaro bellashadi
- Tanlov ishtirokchisi faqatgina bitta yo'nalish bo'yicha ishtirok etish huquqiga ega
- Tanlovda qo'shiqlar faqat jonli ijro etiladi
- Sektor bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchi tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

3 TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI 11-16-APREL

- Tuman(shahar) bosqichida sektor bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar o'zaro bellashadilar
- Tanlov ishtirokchisi faqatgina bitta yo'nalish bo'yicha ishtirok etish huquqiga ega
- Tanlovda qo'shiqlar faqat jonli ijro etiladi
- Tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchi tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

4 HUDUDiy BOSQICHI 18-30-APREL

- Hududiy bosqichida tuman(shahar) bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar o'zaro bellashadilar
- Tanlov ishtirokchisi faqatgina bitta yo'nalish bo'yicha ishtirok etish huquqiga ega
- Tanlovda qo'shiqlar faqat jonli ijro etiladi
- Hududiy bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchi tanlovning keyingi bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritadi

5 RESPUBLIKA BOSQICHI 10-15-MAY

- Hududiy bosqichida g'olib bo'lgan ishtirokchilar yakuniy bosqichida o'zaro bellashadi
- Tanlov Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkaziladi
- Tanlov g'oliblari gala-konsert dasturida taqdirlanadi

IMKONIYAT



TALABA-YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN SOLIQ BORASIDA HAM IMKONIYAT BOR!

@alisher_sadullaev telegram kanalidan olindi.

Soliq kodeksining 378-moddasi, 16-bandiga binoan kontrakt to'lovini ish haqi yoki boshqa daromadlardan amalga oshirgan shaxslarning daromadi soliqqa tortilmaydi.

Mazkur imkoniyatdan 26 yoshga to'lmagan farzandlari to'lov-shartnoma asosida o'qiydigan ota-onalar, 26 yoshga to'lmagan turmush o'rtog'i shartnoma asosida o'qiydigan shaxslar va yoshidan qat'i nazar daromad oluvchi

(rasman ishlayotgan) talabalar foydalanishlari mumkin.

Ushbu imkoniyat o'z mablag'lari, jismoniy shaxsga tijorat banklari tomonidan berilgan ta'lim kreditlari va yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga qaytarish sharti bilan berilgan mablag'lar (ssudalar) hisobidan o'qish uchun to'lov amalga oshirilganda taqdim etiladi.

Hisoblaymiz. Masalan, hali 26 yoshga to'lmagan talabaniy yillik to'lov-kon-

trakti miqdori 10 mln. so'm. Uning otasi 5 mln. so'm oylik olsa va shu oyligidan farzandiga kontrakt to'lasa, undan daromad soligi (12 foiz yoki 600 ming so'm) olinmaydi. Shunda bu talabaniy otasi 10 mln. so'm kontrakt to'lasa, 1 200 000 so'm yutadi.

Albatta, bu to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarga, ularning ota-onalariga biroz bo'lsa-da qo'llab-quvvatlov bo'ladi, degan umiddamiz.

YECHIMI TOPILDI



Farog'atxon XALIŽONOVA,
Farg'ona shahridagi "Yulduz" mahallasi yoshlar yetakchisi

**BIZNING
MAHALLADA
1824 TA XONADON
BOR.
4698 NAFAR
AHOLINING
1620 NAFARI
YOSHLAR.**

Men Farg'ona viloyati Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisiman. Harbiylik men uchun nechog'li mas'uliyatli kasb bo'lsa, mahallada yoshlar yetakchisi bo'lish, ularning bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga javobgarlik ikki karra mas'uliyat deb bilaman. Shu bois, yangi lavozimni ado etishga bor kuch-g'ayratim bilan harakat qilayapman.

Bizning mahallada 1824 ta xonadon bor. 4698 nafar aholining 1620 nafari yoshlar. Men yoshlar o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarini amalga oshirishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqchiman.

Mahallamiz ahlini yaqindan bilish uchun ularni xatlovdan o'tkazdim. Har bir yosh qayerda, nima bilan mashg'ul ekanligi, kim ishsiz, kimning qanday qiziqishi borligini o'rganishga harakat qildim. Ularning qiziqishlari bo'yicha izlandim va qobiliyatlarini bilib oldim. Bugun yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, tadbirkorlik uchun barcha eshiklar ochiq. Bu imkoniyatlardan foydalana olishi uchun esa biz ularga yo'l-yo'riq ko'rsatishimiz kerak.

Bizning hududimiz, asosan ko'p qavatli uylardan iborat. Bu sharoitda yoshlarga qanday qilib mahallamizdan ish o'rni yaratish mumkinligini uzoq o'yladim. Ko'p qavatli uylarda yashovchi aholining dehqonchilik qilish imkonini yo'q-da. Shunda uylarning bo'sh turgan yerto'lalaridan foydalanish fikri paydo bo'ldi. U yerda qo'ziqorin yetishtirish uchun sharoit yaratib berishga kirishdim. Bunda men-ga mahallamizdagi hokim yordamchisi ko'mak berdi.

Yerto'ladan 12 kvadrat metr joyni bir ishsiz yoshga ajratib berdik. O'z uyi yonginasida ish bilan band qilingan Sherzodbek Turg'unov hozir mehnatining ilk hosilini oldi. Endi Sherzodbek tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish harakatida. Bundan tashqari xuddi shu

ish bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tengdoshlariga o'z maslahatini bermoqda. Sherzodbekka havas qilgan yana 4-5 nafar yoshimiz shu tadbirkorlikni boshlamoqda. Bundan tashqari, mahallamiz yoshlarining bandligini turli ishlab chiqarish sexlari, savdo markazlaridagi bo'sh ish o'rinlar bilan ta'minlab kelyapman.

Oliy ta'limda tahsil olayotgan

yoshlar bilan ham tez-tez suhbatlashib turaman. Ularning muammosini ham o'rganishga harakat qilaman. Hozir mening tavsiyam asosida 1 nafar yoshga Yoshlar agentligi tomonida kontrakt puli to'lab berilyapti.


Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida sport musobaqalari, madaniy tadbirlarni o'tkazyapman. Yoshlarda vatanparvarlik hissinı kuchaytirish uchun Milliy Gvardiyaning Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi tashkil etgan "Ochiq eshiklar kuni"da mahallamiz yoshlari bilan qatnashdik. U yerda yoshlar harbiylarning yashash sharoiti, zamonaviy qurol-aslaha, harbiy texnikalar bilan tanishdi.

Mahallamizdagi maktabning sport zali 17:00 dan boshlab yoshlarning sport bilan shug'ullanishi uchun ochib beriladi. Bu yerda ular jamoa bo'lib, turli sport o'yinlarida kuch sinashishadi. Shuningdek, mahallamizda yoshlar uchun turli forumlar, intellektual bel-lashuvlar o'tkazyapmiz. Bular barchasi mahallamiz yoshlari bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga xizmat qilmoqda.



“
KO'P QAVATLI UYLARNING
BO'SH TURGAN
YERTO'LALARIDAN QO'ZIQRIN
YETISHTIRISH UCHUN
FOYDALANISH FIKRI
PAYDO BO'LDI.”

30 TA KOMPYUTER...



Yoshlar ishlari agentligi Qo'shtepa tumani bo'limi mahallalardagi yoshlar yetakchilari ish samaradorligini oshirish uchun 30 nafar yetakchiga zamonaviy kompyuter jamlanmalari topshirdi. Qo'tgan 21 nafar yetakchiga kompyuter jamlanmalari keyingi bosqichda olib berilishi rejalashtirilgani ma'lum qilindi.

Bundan tashqari, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 50 nafar ishsiz yoshga subsidiya asosida:

- 35 dona tikuv mashinasi;
- 6 ta inkubator;
- 7 ta kimyoviy ishlov berish dastgohi;
- 1 ta payvandlash dastgohi;
- 1 ta kompyuter jamlanmasi topshirildi.



Foto: Husniddin ATO

“OLTIDAN YIG‘SA – ORTADI, YETTIDAN YIG‘SA – YETADI”

O‘zbek xonadonida dunyoga kelgan qizning sepi uchun sandiqqa kiyim-kechak, idish-tovoq, pul yig‘ishga ishora qiluvchi bu xalq maqoli qanday paydo bo‘lgan?

Farzandi baxt-u kamolini ko‘rish orzusi xalqimizga xos xislat. Biroq bu “yig‘-ter”lar, hashamat faqat farzand kelajagi uchun emas, qarindosh-urug‘, qo‘ni-qo‘shnilar oldida uyaliq qolmaslik, kerak bo‘lsa, o‘zini ko‘rsatib qo‘yish uchun qilinayotganini ham inkor eta olmaymiz.

Haqli savol: biz nega “Qizim katta bo‘lsa o‘qiya”, deb kitob; “O‘qishga kirsam, kerak bo‘ladi”, deb qo‘shimcha mablag‘ jamg‘arib qo‘ymaymiz? Bolalik chog‘idanoq kitob to‘la javon emas, kekinlik sarpolari bilan to‘lgan sandiqlarni ko‘rib ulg‘aygan qiz kelajakda ilmga intilmikan?..



AMERIKADA “UY BEKASI” LAVOZIMI YO‘Q...

Siz havas qiladigan Amerikada, xoh ishonang, xoh ishonmang, “uy bekasi” degan “lavozim” yo‘q! Chunki amerikaliklarda, biz ota-ona haqidagi ma‘lumotnomani to‘ldira turib, onasining “ish joyi”ga bemaol yozib qo‘yadigan – “uy bekasi” degan tushuncha, termin mavjud emas.

AQShlik “biznes women”larga ko‘pchilik havas bilan qaraydi. Ammo o‘z haq-huquqlarini yaxshi biladigan, shaxsiy mashinasi, ish joyi, daromadiga ega ayol bo‘lish uchun ba‘zilar hali-hanuz qanday stereotipni parchalashi kerakligi haqida bir qarorga kela olmayotgani, turli sabablar bilan o‘zini ovutib yurgani achinarli! Mayli, hammaning ham davlat idoralarida ishlashga, tadbirkorlik qilishga imkoniyati yo‘qdir, ammo bilim olish masalasi-chi?

“O‘qiganim bilan, turmush o‘rtog‘im ishlashimga ruxsat bermaydi” yoki “Erimning topganiga qanoat qilmoqchiman”, degan bahona nahotki, o‘zbek ayoli uchun fazilat bo‘lsa?!

DIPLOMIM BOR, AMMO ISHLAMAYMAN...

Yaponyaliklardan nafaqat o‘zbek, butun dunyo ayollari o‘rnak olsa arziydi.

Ta‘lim tizimi jihatidan yetakchilikni qo‘ldan bermay kelayotgan kunchiqar mamlakatda maktab yoki kollejni tamomlagan qizlar deyarli 100 foiz oliy ta‘limni davom ettiradi. Biroq hayratlanarli jihati shundaki, oliy ma‘lumotli ayollarning bor-yo‘g‘i 30 foizga yaqini o‘z sohasi bo‘yicha karyera qilgan ekan.

Bir necha yil mehnat, mablag‘ va vaqt sarf etib o‘qisang-u, ishlamasang – sal g‘alati tuyulishi mumkin. Bunga yaponyaliklar shunday javob berishar ekan: “Bizda oliy ta‘lim olayotgan ayol-qizlarning ongida kelajakda ishlash, muvaffaqiyatli karyera emas, ko‘proq bo‘lajak ona, millat tarbiyachisi sifatidagi mas‘uliyat hissi ustun turadi. Ya‘ni har bir yapon qizi kelajakda oila qurgach, farzandini to‘g‘ri va chiroyli tarbiyalab, biror mavzuda savol berganda, uni qoniqtiradigan javob bilan o‘z bilimlarini bo‘lishish haqida ko‘proq qayg‘uradi”.

Shu o‘y ularni – kuchli millat tarbiyalashni niyat qilgan qizlarni ko‘proq o‘qish, o‘z ustida izlanishga chorlab tursa, ne ajab?!

Bugun jamoat joylari, metro, avtobus yoki ovqatlanish maskanlarida, o‘quv dargohlarida aksariyat yosh qiz-juvonlar suhbat mavzusiga e‘tibor bersangiz, suhbatning asosiy

mavzusi kimning to‘yi qaysi restoranda bo‘lgani-yu, kelin to‘y ko‘ylagini qaysi salondan tanlagani bo‘ladi. Yana mebel, idish-tovoq, servantlar...

Kuni kecha bir ayol bilan suhbatlashib qoldim, men bilan tengdosh – 18 yosh qizini maktabni bitirgan zahoti yaqin qarindoshining o‘g‘liga unashtirib, uch oydan so‘ng turmushga uzatib yuboribdi. To‘yga ketgan xarajatlarga achinishdan ham ko‘ra ko‘proq, qizning sepiga yig‘gan idish-tovoqlari, qimmatbaho matolari va taqinchoqlari haqida g‘ururlanib gapirdi:

“Xo‘jayinim bilan 10 yildan beri yig‘ib yurgan pullarimiz bir kunlik to‘y uchun, havoga uchgandek sarf bo‘lib ketdi. O‘ziyam qizim hali beshikdalik vaqtidan beri qo‘limga kattaroq mablag‘ tushsa, yaxshi niyatda bozorning oldi narsalarini sotib olib, sandiqqa bosavergan ekanman. To‘y kuni hammaning, ayniqsa, qudalarimning og‘zi ochilib qoldi”.

Oxirgi vaqtlar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p guvoh bo‘lganim – qizlar sarposiga kitob yig‘ish haqidagi urf esimga tushib, xoladan so‘rasam, avval mazza qilib kuldi, keyin jiddiylik bilan qo‘shib qo‘ydi:

“Kitobdan nima foyda, hozirgi zamonda obro‘ javondagi kitoblarga emas, chet elning asl mebellariga qarab topiladi, qizim!”.

O‘ylab qaralsa, bu gaplarda haqiqat bordek, ammo ayolga, ayniqsa, uning hali oq-u qorani tanimay turib oila qurgan yosh qiziga chin yurakdan achindim. Hamma ham bunday fikrlamasligini o‘ylab, taskin topgandek bo‘ldim.

Masalan, oramizda ayrim yosh onalar qizlarining kelajagi uchun sarpodan ham qimmatli sovg‘alar tayyorlashni uddasidan chiqishyapti:

MUTLAQO QARSHIMAN...

Durdona TURSUNOVA,
tarix fani o'qituvchisi, ikki nafar qiz farzandning onasi:



– Yaqinda internet tar-mog'ida bir psixogenetikning fikrini o'qib qoldim – "Farzand-larimiz – bizning natijamiz", debdi olim. Kelajakdagi nati-jam – qizlarimning kattasi 12 yoshga to'lyapti, lekin sarpo yig'ish haqida hatto o'ylab ham ko'rmagan ekanman. Hozir fikr-u xayolim faqat bir narsa-da, "Maktabni bitirgach qay-si universitet talabasi bo'lar ekan?", "Imtihonlardan o'tishga, kasb-hunar egallashga ilmi, kuchi yetarmikan?" deb ko'p qayg'uraman, duolarimda qiz-larimning ilmi menikidan ham ziyoda bo'lishini so'rayman.

Atrofimdagi men bilan teng-dosh, qiz farzand o'stirayotgan ayrim dugonalarimning xat-ti-harakatlari g'ashimga ham tegadi. Ular bolasini chiroyli ki-yintiradi, ko'ngli tusagan ovqat-ni pishirib, xohlagan joyiga olib boradi, ammo bu g'amxo'rliklar bilim borasida kamroq. Ular qo'lga yaxshiroq pul tushsa, qizining sepiga mol xarid qili-shadi. Axir, qiz bolaning tarbiya-si, bilimi har qanday sarpodan ustun turadi-ku!

Menimcha, eng to'g'ri yo'l – oylik maoshimiz, qo'shimcha daromadimizdan pul ajratib, qizlarimizni o'quv markazlariga, to'garak mashg'ulotlariga beri-shimiz, til o'rganish, zamonaviy kelajak kasblarini egallashga jalb qilishimizdir. Ertaga millatni tarbiyalashda bo'lajak onalarga bizning sarpolarimiz emas, yoshligidan bergan go'zal tarbiyamiz, bilimimiz yordam beradi.

"Qush uyasida ko'rgani-ni qiladi". Bugun qizim "Ruhiy tarbiya" kitobini o'qib chiqish mening bahorgi rejamda bor-ligini bilgach, o'zi ham bir nech-ta kitobni o'qish niyatida ekani-ni aytdi. Agar men unga "yangi ko'ylak sotib olmoqchiman yoki dugonalarim bilan restoranda ovqatlanmoqchiman" desam, u ham aniq menga ergashar edi. Ha, farzandlarimiz – bizning natijamiz!

QIZLARIMIZ NIMA DEYDI?



"Qiz bolaning o'zida ilmga, ki-tobxonlikka intilish bo'lsa, hech narsa unga to'siq bo'lolmaydi. Masalan, mening kitob xarid qilishga o'chligimga oilam-dagilar doim ham xayrixohlik bildirishmaydi, biroq oyligim-dan yig'ib yoki biror nima sotib olishdan kechib bo'lsa ham o'zimni qiziqitirgan kitoblarni sotib olaman. Kitob o'qish davomida har safar yangi bilimlarni egallash va fikrlash doiramni kengaytirishdan oladigan zavqni yangi ko'ylak yoki qimmatbaho telefonidan topa olmasam kerak. Anchagina boyib qolgan kitob javonimda-gi sevimli asarlarimni, kelajak-da turmushga chiqsam, o'zim bilan olib ketish niyatim bor.

Kitob o'qishni, shunchaki, sevaman! Kelajakda farzandli bo'lsam, ularga ham o'qib berishni, kitobga, ilmga chanqoq qilib tarbiyalashni xohlayman!"

XULOSA EMAS, XULLAS...

Har birimizga Yaratgan ta-fakkur qilish, mustaqil fikrlash-dek ne'mat ato etgan. Shun-day ekan, jamiyatning eng og'riqli nuqtasiga aylangan bu mavzudan xulosa chiqarishni yana o'zingizga qoldiramiz! Ammo unutmang! Qiz bola bir oilaning emas, butun mil-latning yuzidir, "yuzingiz" doim "yorug'" bo'lishini istasangiz, tez-tez "ko'zgu"ga boqib, o'zingizni chetdan kuzatishni kanda qilmang.

Ziyoda RAHIMBOYEVA

"YASHIL MAKON"NI YOSHLAR BILAN YARATAMIZ!



B

Bitta daraxt bir yilda 100 kg kislorod chiqaradi. Ammo bun-cha kislorodni ishlab chiqarishi uchun daraxt balandligi kamida 12 metr bo'lishi, og'irligi esa 2 tonnadan kam bo'lmasligi kerak. In-son kislorod bilan to'liq ta'minlanishi uchun bir yilda bunday daraxtlardan 7-8 tasi "xizmat" qiladi.

Bugungi kunda Yoshlar ishlari agentligi tizimida 10 708 nafar rahbar xodim va mahallalardagi yosh-lar yetakchilari faoliyat yuritadi. Har bir yetakchi 5 donadan hamda 10 000 nafardan ziyod volontyor yoshlar 3-10 donadan daraxt eksa, bir mavsum-da respublikamizda 200 000 ga yaqin yangi nihol paydo bo'ladi. Bu faqat va faqat atrof-muhitning tozaligiga xizmat qiladi.

Ko'klamda 200 000 ga yaqin ko'chat o'tqazish maqsadida respublikamiz bo'ylab "Yashil yillik" umummilliy harakati joriy etildi. Mazkur umummilliy harakat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallash-tirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni-ga muvofiq barcha mahallalar, shahar va qishloq-larda amalga oshirilmoqda. Joriy yil 24-martga qadar 60 000 ga yaqin daraxt nihollari ekildi.








Bundan tashqari, Yoshlar ishlari agentligining ma-hallalardagi yetakchilari har bir xonadon, ko'chada aholini, ayniqsa, yoshlarni tomorqadan unumli foydalanish, ular atrofni obodonlashtirish va ko'kalamzor-lashtirishga targ'ib etmoqda.



Elyor NORPO'LATOV
Yoshlar ishlari agentligi bosh mutaxassisi

BUGUNGI MAHALLA KECHAGI MAHALLA EMAS.

“Asaxiy Books” loyihasidan mahalladagi har bir yosh o‘qishi uchun tavsiya etiladigan kitoblar:



* Xarid qilish uchun QR kodni smartfoningiz yordamida skaner qiling

**YOSHLAR
OVOZI**

Bosh muharrir:
**Hamza
ABDULLAYEV**

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Iqbol PARDAYEVA

Musahhihlar:
**Shahribonu RAHMATOVA,
Qirmizoy HAKIMOVA**

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil II-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko‘chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-78-96.

“Sharq” nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Ko‘pxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-355, Adadi – 10600. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6